

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№4

2025
APREL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE


Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





*Elektron nashr,
291 sahifa, aprel, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik
Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Botirali Roxatiliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat texnika universiteti

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari.....	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar.....	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi.....	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения.....	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqli sug'orish tizimlarining ahamiyati.....	62
Abdullayev.A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture.....	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности.....	78
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности.....	97
Маликов Аuezхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi.....	114
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari.....	123
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich	
Yangi o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari.....	132
Tojiyev Javlonbek Rustamovich	



Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat banklarida depozitlarining amaldagi holati tahlili	138
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati	151
Karimjonov Muhammadrasul To'liqinjon o'g'li	
Mustaqil direktorlar ulushi, nomoliyaviy axborotlarning oshkor qilinishi va dividend siyosatining kapital qiymatga kompleks ta'siri	159
Urinov Bobur Nasilloevich	
Turizm orqali ish o'rinlarini yaratish va bandlik muammosini kamaytirish imkoniyatlari	167
Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
Kam quvvatli gidroelektr stansiya uchun mos bo'lgan invertor, reduktor, akkumulyator va generatorni tanlash	173
Xamrayev Og'abek Oybek o'g'li, Davletov I.Y.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	182
Ibragimova Gulnoza Sayidmuradovna	
Terminologiya va ilmiy terminologiya xususida	188
Ruziyeva Gulnoz Temirqulovna	
O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish yo'llari	192
Ramazonov Javohir Bekzod o'g'li	
Bazalt chiqindi toshqol asosidagi kam suv talabchan sementlarning samaradorligini oshirish	197
Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li	
Qashqadaryo qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligini turli yondashuv asosida baholash	203
Omonova Sitara Zafar qizi, Utayev Sobir Achilivich	
Tilshunoslikning mexanika muhandisligi terminlari xususida	208
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
"Chizma geometriya va perspektiva" fanining arxitektura bilimlari tizimidagi roli	213
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
Geodezik plan olishning avtomatlashgan usullari	219
Mamajonova Nodira Alisher qizi	
Zamonaviy arxitektura interyer dizaynida milliy grixva islomiy naqshlar uyg'unligi	225
Qo'chqarov Baxodir O'lmasovich	
Qurilishda mehnat unumdorligini oshirish va uni prognozlashning nazariy asoslari	230
Abduvaliyev Bekzod Muhiddin o'g'li	
Qishloq aholi hududlaridagi zamonaviy innovatsion o'zgarishlarining o'rta ta'lim maktablari tuzilishidagi ta'siri	235
Abdurahmonov Olimjon Obboqul o'g'li	
Seysmik hududlarda qurilish konstruksiyalarini to'g'ri tanlash	241
Egamberdiyeva Shaxnoza Abdurashidovna	
Arixiy yodgorliklarning me'moriy-rejaviy, konstruktiv va badiiy bezak yechimlari	251
Sotvoldiyev Azamatjon Akramjon o'g'li	
Xitoy va O'zbekiston tajribasi asosida soliq to'lovchilar reytingi tizimi orqali fiskal intizomni mustahkamlash	255
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
Turizmga investitsiyalar iqtisodiyotimizga ijobiy ta'siri etuvchi omillari sifatida	268
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Tursunov Qosimbek Nodirovich	



Problems of determining the informativeness of input and output parameters in object management	275
Turapov Ulugbek Urazkulovich	
Tijorat banklari faoliyatiga foiz riskining ta'siri: ilmiy-nazariy asoslar va amaliyot tahlili	280
Turdiyev Abdulhakim Qulbazarovich	



TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIGA FOIZ RISKINING TA'SIRI: ILMIY-NAZARIY ASOSLAR VA AMALIYOT TAHLILI

Turdiyev Abdulhakim Qulbazarovich

Termiz davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti
Moliyaviy kafedra mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklari faoliyatida foiz riski tushunchasi va uning bank faoliyatiga ko'rsatadigan ta'siri har tomonlama tahlil qilinadi. Xususan, tijorat banklarida foiz riskini boshqarish bo'yicha zamonaviy yondashuvlar va ularning amaliyotdagi holati o'rganiladi. Foiz stavkalarining o'zgarishi kredit portfeli sifati va bank faoliyati ko'rsatkichlariga qanday ta'sir ko'rsatishi statistik ma'lumotlar asosida yoritiladi. Yakunda foiz riskini samarali boshqarishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, foiz riski, kreditlar, bank faoliyati ko'rsatkichlari, kredit portfeli, muammoli kreditlar.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the concept of interest rate risk in the operations of commercial banks and its impact on banking performance. It explores modern approaches to managing interest rate risk in commercial banks and evaluates the practical implications of such risks. The study highlights how fluctuations in interest rates affect the quality of loan portfolios and key performance indicators of banks, using statistical data for empirical support. Finally, the article offers scientific and practical recommendations for improving interest rate risk management.

Keywords: commercial banks, interest rate risk, loans, banking performance indicators, loan portfolio, non-performing loans.

Аннотация: В статье проводится всесторонний анализ понятия процентного риска в деятельности коммерческих банков и его влияния на банковскую деятельность. Особое внимание уделяется современным подходам к управлению процентным риском и оценке его текущего состояния в банковской практике. На основе статистических данных рассматривается влияние колебаний процентных ставок на качество кредитного портфеля и ключевые показатели деятельности банков. В заключение даны научно-практические рекомендации по совершенствованию управления процентным риском.

Ключевые слова: коммерческие банки, процентный риск, кредиты, показатели банковской деятельности, кредитный портфель, проблемные кредиты.



KIRISH

Zamonaviy bank tizimida tijorat banklari iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ular moliyaviy vositachi sifatida aholi, tadbirkorlik subyektlari va davlat o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni muvofiqlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tijorat banklari faoliyatining asosiy daromad manbalaridan biri bo'lgan kredit operatsiyalari, o'z navbatida, turli xil bank risklariga, xususan foiz riskiga duch keladi.

Haqiqatan ham, tijorat banklari faoliyatiga ko'plab risklar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ular orasida foiz riski, kredit riski va likvidlik riski asosiy risklar sirasiga kiradi. Ayniqsa, foiz riski tijorat banklari uchun eng sezilarli xavf omillaridan biri hisoblanadi. U foiz stavkalaridagi (asosiy stavka, kredit va depozit stavkalari) o'zgarishlar natijasida bankning asosiy daromad ko'rsatkichlari, jumladan foiz marjasining kamayishi yoki butunlay yo'qolishi bilan bog'liqdir. Mazkur xavf kreditlar va depozitlar hajmidagi nomutanosibliklar, aktiv va passivlarning qayta moliyalashtirish muddati bo'yicha nomutanosib joylashuvi, shuningdek, bozor sharoitlarining beqarorligi orqali yuzaga kelishi mumkin.

Aynan shuning uchun foiz riskini aniqlash, tahlil qilish va samarali boshqarish tijorat banklari barqarorligi va foydalilik darajasini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Xususan, O'zbekiston bank tizimida so'nggi yillarda foiz stavkalari bozorlashtirilgani va raqobat kuchaygani sharoitida foiz riskini boshqarish masalasi yanada dolzarb tus olmoqda.

Ushbu maqolada tijorat banklari faoliyatida foiz riskining ilmiy-nazariy asoslari chuqur o'rganiladi hamda uning bank faoliyatiga ko'rsatadigan amaliy ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston tijorat banklarida foiz riski bilan bog'liq mavjud muammolar, ularni keltirib chiqarayotgan omillar aniqlanadi va zamonaviy sharoitda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUDA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida foiz riski xorijiy, MDH mamlakatlari hamda mahalliy olimlar, tadqiqotchilar va mutaxassislar tomonidan faol o'rganib kelinayotgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Quyida ushbu yo'nalishda bildirilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar va qarashlarning qisqacha tahlili keltiriladi.

AQShlik tadqiqotchi Jon Stefensning fikriga ko'ra, foiz stavkalarining oshishi tijorat banklarining asosiy daromad manbai hisoblangan sof foiz daromadiga ta'sir ko'rsatish orqali ularning umumiy foydasini xavf ostiga qo'yadi. Bundan tashqari, foiz stavkalarining ko'tarilishi natijasida depozit fondi xarajatlarining ortishi sharoitida tijorat banklarining aktivlari, majburiyatlari va balansdan tashqari vositalarining amaldagi qiymati kamayadi. Bu esa ayrim tijorat banklarining likvidligi va kapitaliga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularni zarur choralarni ko'rishga, xususan kapital darajasini yangilash va kuchaytirishga majbur qiladi. Tadqiqotchining fikricha, tijorat banklari foiz riskiga oid hisobotlarning aniq va oshkora bo'lishini ta'minlash uchun o'z hisoboti infratuzilmasining samaradorligini doimiy baholab borishi lozim [1].


AQShlik olimlar Grant E. Rozenberger va Peter Zimmerman ta'kidlashicha, moliyaviy muassasalar (shu jumladan, tijorat banklari) odatda qat'iy belgilangan nominal foiz stavkalarida kreditlar ajratadilar. Bozor foiz stavkalari oshgan holatda bunday qat'iy stavkali kreditlarning qiymati pasayadi, chunki bu kreditlar boshqa qat'iy daromadli aktivlarga nisbatan past rentabellikka ega bo'ladi. Xuddi shunday holat obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar uchun ham xosdir. Olimlarning ta'kidlashicha, AQShdagi "Silicon Valley Bank" (SVB) inqirozining asosiy sababi – uning uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarga yo'naltirgan investitsiyalaridan ko'rilgan yirik zararlar bo'lgan.

Grant E. Rozenberger va Peter Zimmerman o'z tadqiqotlarida quyidagi savolni ilgari suradilar: "Nima sababdan foiz riski moliyaviy muassasalar, xususan tijorat banklari uchun xavfli hisoblanadi?" Ularning fikricha, odatda moliyaviy muassasalardan aktivlarni sotilmaguniga qadar bozor o'zgarishlaridan kelib chiqadigan yo'qotishlarni zudlik bilan hisobga olish talab etilmaydi. Bir qarashda, agar moliyaviy muassasa aktivni ushlab turishni davom ettirmoqchi bo'lsa, bu katta muammo bo'lmasligi mumkin. Biroq bu holat ularning haqiqatdagi kapital darajasini to'g'ri aks ettirmaydi [2]. Olimlar ushbu muammoning kamida uchta sababini ajratib ko'rsatadilar (1-rasmga qarang).

Rossiyalik tadqiqotchi Samoylov N. A. fikricha, foiz riski deyarli barcha kompaniyalarga xos bo'lib, ular orasida yuqori qarz yukiga ega bo'lgan kompaniyalar bu riskka ko'proq duchor bo'ladi. Tijorat banklari esa aynan shunday kompaniyalar sirasiga kiradi. Unga ko'ra, so'nggi yillarda kreditorlar kredit shartnomalarida foizlarni qoplash koeffitsientiga oid bandlarni tobora ko'proq kiritmoqdalar. Bu ko'rsatkich kompaniyaning foiz to'lovlariga yetarlilik darajasini belgilaydi. Agar ushbu ko'rsatkich shartnomada belgilangan darajadan pastga tushsa, bank kreditni muddatidan oldin qaytarishni yoki foiz stavkasini oshirishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Bu esa kompaniyada likvidlik muammolarini keltirib chiqarib, oxir-oqibat uni bankrotlikka olib borishi mumkin [3].

Ushbu yondashuvdan ko'rinadiki, tijorat banklari o'zlarini foiz riskidan himoya qilish maqsadida ayrim hollarda mijozlar zarariga bo'lsa-da, xavfsizlik choralari kuchaytirmoqda. Bu esa Rossiyada tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish zarurati mavjudligidan dalolat beradi.

Rossiyalik olim S.N. Solovyova va tadqiqotchi Yu.A. Golubtsova fikricha, foiz riski foiz stavkalaridagi o'zgarishlar tufayli yuzaga keladi. Bunday risk bozor stavkalarining o'zgarishi hamda ularning bank daromadlariga ta'siri natijasida aktivlar va majburiyatlarni qayta baholash imkoniyati bilan bog'liqdir. Bu holatlar odatda foiz stavkalari pasayganda yoki ko'tarilganda, qat'iy belgilangan foiz stavkali to'lovlar muddatidan keyin yoki belgilangan davr yakunida o'zgaruvchan tus olganda, yoki o'zgaruvchan foiz stavkalari ikki qayta ko'rib chiqish sanasi orasida o'zgarmas bo'lib turganda yuzaga keladi. E'tiborga molik jihati shundaki, aktivlar va majburiyatlar bo'yicha foiz stavkalarining ikki qayta ko'rib chiqish sanasi orasidagi davr har doim bir xil emas va u bozor hamda tartibga soluvchi omillar ta'sirida farqlanib boradi. Bu esa foiz riskining yuzaga kelishiga olib keladi [4].(1-rasm)



1-рasm. Tijorat banklari kapitallashuvining oshishiga foiz riskining ta'sir ko'rsatish sabablari [5].

Mahalliy olimlar va tadqiqotchilar Yuldasheva I. Z., Xojimuhamedova Sh. I. hamda Bahodirov O. N. ta'kidlashicha, tijorat banki faoliyatining daromadliligi yoki yuqori foydalilikka erishishi ko'p jihatdan foiz riski darajasiga bog'liqdir. Banklar o'z faoliyati davomida ushbu risk bilan doimiy ravishda to'qnash keladilar. Bank



tizimi mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri ekanligini inobatga olgan holda, tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirishda foiz riskini to'g'ri boshqarish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi [6]. (1-jadval)

1 – jadval. Maxsus foiz riskini aniqlash ma'lumotlari [7].

Instrumentlar toifasi	Qimmatli qog'ozlar shakllari	Risk koeffitsiyenti, %
Davlat	Risksiz moliyaviy instrumentlar (AAA reytingdan AA - reytinggacha)	0
	Past riskli (A+ reytingdan VVV- reytinggacha) va so'ndirilishi muddati 6 oygacha bo'lgan moliyaviy instrumentlar	0,25
	Past riskli (A+ reytingdan VVV- reytinggacha) va so'ndirilish muddati 6 dan 24 oygacha bo'lgan moliyaviy instrumentlar	1
	Past riskli (A+ reytingdan VVV- reytinggacha) va so'ndirilish muddati 24 oydan yuqori bo'lgan moliyaviy instrumentlar	1,60
	Oshirilgan riskli moliyaviy instrumentlar (VV+ reytingdan V- reytinggacha)	8
	Oshirilgan riskli moliyaviy instrumentlar (V- reytingdan past)	12
	Reytingga ega bo'lmagan moliyaviy instrumentlar	8
Qabul qilingan	So'ndirilish muddati 6 oygacha bo'lgan moliyaviy instrumentlar	0,25
	So'ndirilish muddati 6 oydan 24 oygacha bo'lgan moliyaviy vositalar	1
	So'ndirilish muddati 24 oydan yuqori bo'lgan moliyaviy instrumentlar	1,60
Boshqa	Oshirilgan riskli moliyaviy instrumentlar (VV+ reytingdan V- reytinggacha)	8
	Yuqori riskli moliyaviy vositalar (V-reytingdan past)	12
	Reytingga ega bo'lmagan moliyaviy instrumentlar	8

Mahalliy olim Xaydarov Z. Sh. xulosa qilishicha, O'zbekistonda foiz stavkalari bozori hamda qimmatli qog'ozlar bozori yetarlicha rivojlanmaganligi sababli tijorat banklari tomonidan regulativ kapitalning yetarliligini hisoblashda foiz stavkalari bozor riski va qimmatli qog'ozlar bozor riski kabi xalqaro mezonlar hisobga olinmaydi. 2017-yil sentabr oyidan boshlab, O'zbekiston iqtisodiyotining erkinlashtirilishi munosabati bilan, tijorat banklari kapitalining yetarliligini aniqlashda foiz stavkalari va qimmatli qog'ozlar bozor riski ko'rsatkichlarini inobatga olish zaruratga aylandi. Bu esa, o'z navbatida, bank risklarining kamayishiga, banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga, shuningdek, O'zbekiston tijorat banklarining xalqaro moliya bozoriga chiqishiga va mamlakat iqtisodiyotida investitsion faollik ortayotgan sharoitda likvidlik muammolarini bartaraf etishga xizmat qiladi [8].

Mahalliy mutaxassis Saitqulov A. N. fikricha, O'zbekistonda banklar faoliyatining samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri – foiz riskini boshqarish bo'yicha yetarli darajada mexanizmlarning ishlab chiqilmaganligi va takomillashmaganligi – real iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, u foiz riskining mohiyatini ochib berishni dolzarb deb hisoblab, maxsus foiz riskini aniqlash bo'yicha metodik jadvalni taklif etgan (1-jadvalga qarang). Tadqiqotchining fikricha, maxsus foiz risklari moliyaviy instrumentlarning joriy bozor qiymatini 1-jadvalda keltirilgan risk koeffitsienti bilan ko'paytirish orqali aniqlanadi [9].

Umuman olganda, xorijiy, MDH mamlakatlari hamda mahalliy olimlar, tadqiqotchilar va mutaxassislarning tijorat banklaridagi foiz riski bo'yicha bildirilgan fikr va xulosalariga asoslanib aytish mumkinki, foiz riski tijorat banklari faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan asosiy xavf omillaridan biridir. Aynan ushbu risk banklarning daromadlilik darajasini belgilovchi strategik ko'rsatkich sifatida maydonga chiqadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola xalqaro IMRAD tuzilmasi talablariga muvofiq tayyorlangan bo'lib, unda uch asosiy tadqiqot usulidan foydalanilgan: ilmiy–nazariy tahlil usuli, nazariy–amaliy tahlil usuli va iqtisodiy–statistik tahlil usuli.

Ilmiy–nazariy tahlil usuli, asosan, maqolaning “Mavzuga oid adabiyotlar tahlili” qismi uchun to'plangan manbalarni o'rganish va tahlil qilishda qo'llanilgan. Iqtisodiy–statistik tahlil usuli esa maqolaning “Tahlil va natijalar muhokamasi” qismi uchun yig'ilgan faktlar va statistik ma'lumotlarni tahlil qilishda ishlatilgan. Nazariy–amaliy tahlil usuli esa mazkur ikki bo'limda ham qo'llanilgan bo'lib, tahlil natijalarining amaliy jihatdan qo'llanilishi hamda xulosalarning asoslanganligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Ilmiy maqola uchun ma'lumotlarni yig'ish jarayonida asosan birlamchi va ikkilamchi tadqiqot manbalaridan foydalanilgan. Birlamchi manbalar doirasida tijorat banklari faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan mahalliy olimlar, tadqiqotchilar va soha mutaxassislari bilan intervyular tashkil etilgan. Ikkilamchi manbalarni o'rganishda esa Google, Google Scholar, Yandex qidiruv tizimlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamda tijorat banklarining rasmiy veb-saytlari, shuningdek, tegishli davlat tashkilotlari va xalqaro moliyaviy institutlarning hisobotlari hamda statistik byulletenlariga murojaat qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagi “Mavzuga oid adabiyotlar sharhi” bo'limida xorijiy, MDH mamlakatlari va mahalliy olimlar, tadqiqotchilar hamda mutaxassislar tomonidan bildirilgan fikr va xulosalardan kelib chiqib, tijorat banklarida foiz riski, asosan, foiz stavkalaridagi o'zgarishlar yoki tebranishlar natijasida yuzaga kelishi haqidagi ilmiy asoslangan tasavvur shakllandi. Tadqiqot mavzusi tijorat banklari faoliyati ko'rsatkichlariga foiz riskining ta'sirini o'rganishga qaratilganligi sababli, ushbu bo'limda Markaziy bankning asosiy foiz stavkasi yoki kredit va depozitlar bo'yicha foiz stavkalarining o'zgarishi emas, balki aynan foiz riskining tijorat banklari faoliyatiga ko'rsatadigan amaliy ta'sir darajasi tahlil etiladi.(2-jadval)

2-jadval. O'zbekiston bank tizimining 2021–2023-yillardagi umumlashtirilgan balans ko'rsatkichlari [10].

Ko'rsatkichlar	2021		2022		2023	
	trln so'm	mlrd doll.	trln so'm	mlrd doll.	trln so'm	mlrd doll.
Aktivlar	444,9	41,1	556,7	49,6	652,2	52,9
Likvidli aktivlar	10,7	1,0	19,3	1,7	20,2	1,6
Kredit tashkilotlaridagi mablag'lar	69,6	6,4	91,9	8,2	86,5	7,0
Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar	19,6	1,8	31,5	2,8	32,5	2,6
Mijozlarga kreditlar	316,4	29,2	378,9	33,8	457,8	37,1
Asosiy vositalar	11,0	1,0	14,2	1,3	19,9	1,6
Boshqa aktivlar	17,3	1,7	21,1	1,8	35,3	3,0
Passivlar	444,9	41,1	556,7	49,6	652,2	52,9
Mijozlarning mablag'lari	156,2	14,4	216,7	19,3	241,7	19,6
Moliyaviy tashkilotlarning mablag'lari	192,4	17,8	229,0	20,4	270,3	21,9
Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	10,6	1,0	10,9	1,0	13,2	1,1
Subordinar qarzar majburiyatlari	4,2	0,4	6,6	0,6	9,7	0,8
Boshqa majburiyatlar	10,6	1,0	13,9	1,2	20,2	1,6
Kapital	70,9	6,5	79,6	7,1	97,1	7,9

Ushbu jadvalda bank tizimining umumlashtirilgan balans ko'rsatkichlari tahlil qilingan bo'lib, bunday tahlilni amalga oshirishning asosiy sababi shundaki, foiz riski bank aktivlari va passivlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, likvid aktivlar, investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar hajmi 2023-yilda 2022-yilga nisbatan o'sish tendensiyasini namoyon qilgan. Biroq, valuta ayirboshlash kurslaridagi tebranishlar



oqibatida, bu ko'rsatkichlar AQSh dollari hisobida ifodalanganda pasayish holatini aks ettirmoqda.

Aynan shu o'rinda foiz riskining bankning operatsion faoliyatiga salbiy ta'siri kuzatiladi. Sababi, valuta kursining o'zgarishi foiz riski bilan bevosita bog'liq bo'lib, buning oqibatida banklar ma'lum moliyaviy yo'qotishlarga duch kelishi mumkin. Shu bois valuta kursidagi tebranishlarni to'g'ri prognoz qilish tijorat banklarida foiz riskini boshqarish amaliyotining muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylanishi lozim.

Jadvalda ko'rsatilganidek, so'nggi yillarda tijorat banklari kapitalining muntazam o'sishi kuzatilmoqda. Bu holat foiz riskiga qarshi kurashish, boshqacha aytganda, foiz riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning ijobiy natijasi sifatida baholanishi mumkin. Ushbu chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:


- 2023-yil 1-sentabrdan 2025-yil 1-yanvargacha bo'lgan davrda tijorat banklari ustav kapitalining minimal miqdori quyidagi tartibda bosqichma-bosqich oshirilishi belgilangan:

- 2023-yil 1-sentabrga qadar – 100 mlrd so'm;
- 2023-yil 1-sentabrdan – 200 mlrd so'm;
- 2024-yil 1-apreldan – 300 mlrd so'm;
- 2025-yil 1-yanvardan – 500 mlrd so'm [11].

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2020-yildan boshlab tijorat banklariga ustav kapitalini Qonunda belgilangan miqdorgacha yetkazish bo'yicha tavsiyalar berishni boshladi. Ustav kapitalining yetarli miqdoriga ega bo'lmagan banklarga boshqa banklar bilan birlashish tavsiya qilindi. Aks holda, ular faoliyat yuritish uchun berilgan litsenziyani yo'qotish xavfi ostida qolishi mumkinligi bildirildi. (2-rasmda 2023-yil 1-may holatiga ko'ra ustav kapitali 200 mlrd so'mdan kam bo'lgan tijorat banklari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.) Markaziy bankning "Banklar va bank kapitalari to'g'risida"gi Qonunning ijrosini ta'minlashga qaratilgan ushbu chora-tadbirlari 2021–2023-yillar davomida tijorat banklari kapitalining oshishida muhim omil bo'lib xizmat qildi.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-sonli¹ Farmoni [12], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvardagi "Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-90-sonli² qarori [13] va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-162-sonli³ qarori [14] asosida Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, Xalq banki, Agrobank, Mikrocreditbank va Qishloq qurilish banki (hozirgi nomi – Biznesni rivojlantirish banki) kabi davlat tasarrufidagi tijorat banklari aksiyalarini fond birjalari orqali ommaviy joylashtirishga tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda. Bu esa ushbu banklar kapitalining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

- Shuningdek, to'rtta tijorat banki ilk bor xalqaro kapital bozorida yirik moliyaviy operatsiyani amalga oshirib, umumiy qiymati qariyb 1 milliard AQSh dollari miqdoridagi mablag'ni jalb etishga muvaffaq bo'lishdi [15].(2-rasm)



2-rasm. Ustav kapitalining minimal hajmi 200 mlrd so'mdan kam bo'lgan tijorat banklari (2023-yil 1-may holatiga) [16].

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-sonli Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5371091>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvardagi "Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-90-sonli qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-5825745>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-162-sonli qarori: <https://www.lex.uz/uz/docs/-6898706>

Endi e'tiboringizni 3-jadvalga qaratamiz. Ushbu jadvalda O'zbekiston bank tizimining 2021–2023-yillardagi foyda va zarar to'g'risidagi umumlashtirilgan hisoboti ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Tahlil qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad – foiz riskining tijorat banklari foydalilik darajasi hamda ularning operatsion (asosiy) faoliyatdan oladigan daromadlariga qanday tahdid solishi mumkinligini aniqlashdir. Shundan kelib chiqib, mazkur ko'rsatkichlar alohida o'rganishga qaror qilindi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, so'nggi uch yil davomida mamlakat bank tizimining sof foydasi barqaror o'sish sur'atlari bilan xarakterlanadi. Ushbu o'sishga quyidagi omillar sabab bo'lgan deb hisoblash mumkin:

Yuqorida qayd etilganidek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan olib borilgan qat'iy pul-kredit siyosati, inflyatsiya darajasining pasayishi hamda tashqi iqtisodiy faollikdagi ijobiy siljishlar tufayli asosiy foiz stavkasi pasaygan. E'tiborga molik jihati shundaki, Markaziy bank asosiy stavkasining kamaytirilishi tijorat banklarining daromadlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan;

So'nggi uch yil davomida bank sektorini isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida tijorat banklarining ustav kapitali sezilarli darajada ortdi (2-jadval).

3-jadval. O'zbekiston bank tizimining 2021–2023-yillardagi foyda va zarar to'g'risidagi umumlashtirilgan hisoboti ko'rsatkichlari [17].

Ko'rsatkichlar	2021		2022		2023	
	trln so'm	mlrd doll.	trln so'm	mlrd doll.	trln so'm	mlrd doll.
Sof foizli daromadlar	16595	1531	24162	2152	28996	2350
Sof foizsiz daromadlar	12307	1136	21370	1904	28781	2333
Ko'rilishi mumkin bo'lgan kredit zararlarini baholash	12221	1128	13863	1235	18413	1492
Ko'rilishi mumkin bo'lgan nokredit zararlarini baholash	333	31	4213	375	4645	376
Operatsion xarajatlar	10998	1015	14877	1325	19563	1586
Daromad solig'i	1465	135	2587	230	2775	225
Foydaga tuzatishlar	0	0	1	0	0	0
Sof foyda	3885	359	9993	890	12380	1003

Potensial risklar, jumladan foiz riskining tijorat banklari kapitali va likvidligiga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini minimallashtirish maqsadida, tijorat banklari faoliyati doimiy ravishda Jahon banki ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan nazorat indikatorlari hamda Xalqaro valyuta jamg'armasining moliyaviy barqarorlik indikatorlari asosida tahlil qilinib borildi. Bundan tashqari, turli ssenariylar asosida stress-testlar ham o'tkazildi.

Ushbu stress-testlar natijalariga ko'ra tijorat banklarining aktivlarini ishonchli baholash, zarar keltiruvchi holatlar uchun yetarli darajadagi zaxiralarni shakllantirish, eng yirik mijozlarning moliyaviy holatini doimiy monitoring qilish, muammoli kreditlarni undirish tizimini takomillashtirish, bank faoliyatiga aloqador bo'lmagan aktivlarni balansdan chiqarish, xarajatlarni optimallashtirish, shuningdek kapital va likvidlik buferlarini o'z vaqtida shakllantirish bo'yicha zarur choralar ko'rildi.

Resurslar narxi oshib borayotgan, tashqi moliyaviy bozorlaridagi raqobat kuchayib borayotgan sharoitda iqtisodiyotning kreditlarga bo'lgan ortib borayotgan talabini qondirish va bank tizimiga uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini jalb qilish uchun zarur infratuzilmaviy sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratildi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish lozimki, O'zbekistonda kreditlar bo'yicha o'rtacha yillik foiz stavkasining yuqoriligi ularning qaytmaslik ehtimolini oshirayotgan muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu holat, o'z navbatida, tijorat banklarining asosiy (operatsion) faoliyatiga foiz riski tahdidini kuchaytirishi mumkin. Mazkur xavfni kamaytirish maqsadida, mamlakatimizda muammoli kreditlar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu fikrimizni 3-rasmda keltirilgan statistik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi.


3-rasmda ko'rsatilganidek, muammoli kreditlar ulushi so'nggi yillarda barqaror pasayish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Bunday ijobiy natijaga erishish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

Tijorat banklari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan hamkorlikda muammoli kreditlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun oyma-oy reja-grafiklar ishlab chiqildi;

Davlat ulushi mavjud bo'lgan banklarda muammoli kreditlarni undirish bo'yicha maxsus ishchi guruhlar tashkil etildi va muammoli kreditlarga ega bo'lgan mijozlar bilan individual yondashuv asosida tizimli ishlar olib borildi;



Muammoli kreditlarning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini oldini olish va ularning ulushini kamaytirish maqsadida tijorat banklarining kredit portfeli banklar, hududlar va segmentlar kesimida muntazam tahlil qilib borildi.(3-rasm)



3-rasm. 2021–2023-yillardagi muammoli kreditlar ulushi dinamikasi [18].

Bundan tashqari, hududlarda muammoli qarzdorlikni undirish samaradorligini oshirish maqsadida, tijorat banklarining rahbar xodimlaridan iborat ishchi guruhlar tuzildi. Ular O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki raisining o'rinbosarlari boshchiligidagi tashkil etilib, joylarda muammoli kreditlarni undirish holati bo'yicha monitoring ishlari olib borildi.

Umuman olganda, foiz riskining ta'siri sezilishi mumkin bo'lgan bank balans ko'rsatkichlari va moliyaviy natijalari bo'yicha oxirgi yillarda ijobiy tendensiyalar kuzatildi. Shunga qaramay, kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining yuqori darajada saqlanib qolayotgani foiz riskining kuchayishiga olib kelmoqda. Bu holat muammoli kreditlar ulushining shakllanishida o'z ifodasini topmoqda.

Ushbu vaziyat, o'z navbatida, tijorat banklarida foiz riskini samarali boshqarish, uni yumshatish va muammoli kreditlar darajasini yanada pasaytirish uchun ilmiy–amaliy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rahbarligida olib borilayotgan oqilona va samarali pul-kredit siyosati, shuningdek tijorat banklari uchun belgilangan prudensial me'yorlar tufayli foiz riskining tijorat banklari faoliyatiga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini ma'lum darajada yumshatishga erishilmoqda. Biroq, olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu yo'nalishda hal qilinishi zarur bo'lgan muammolar va kamchiliklar hanzugacha mavjud. Quyida ushbu masalalarni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy–amaliy tavsiyalar keltirilgan:

- Tijorat banklarida valuta ayirboshlash kurslaridagi o'zgarishlarni aniq prognoz qilish tizimini rivojlantirish zarur. Buning uchun quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratilishi lozim:

- makroiqtisodiy ko'rsatkichlar (inflyatsiya, foiz stavkalari, YAIM, bandlik darajasi, tashqi savdo balansi va boshqalar) tahlili;

- ekonometrik modellarni qo'llash;
- xalqaro moliyaviy bozorlardagi dinamikani monitoring qilish;
- texnik tahlil asosida bashoratlash;
- sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish;
- mijozlarning moliyaviy xatti-harakatlarini tahlil qilish;
- risklarni xedjirlash (ya'ni sug'urtalash) mexanizmlarini keng joriy etish.

- Tijorat banklarida kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini bosqichma-bosqich pasaytirib borish maqsadga muvofiq. Buning uchun quyidagi yo'nalishlarga ustuvor ahamiyat berish lozim:

- bank xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish;
- mijozlar bazasini kengaytirish va kredit portfelini diversifikatsiya qilish;
- kredit risklarini baholash tizimini takomillashtirish;
- banklararo raqobat muhitini rivojlantirish;
- kreditlashning ustuvor yo'nalishlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- moliyaviy savodxonlikni oshirish va kreditlash shartlarining oshkoraligini ta'minlash.

- Tijorat banklarining kredit portfelidagi muammoli kreditlar ulushini kamaytirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish muhimdir. Bunda quyidagi choralarni ko'rish tavsiya etiladi:

- kredit oluvchilarning to'lov qobiliyatini baholash tizimini takomillashtirish;
- risklarni boshqarishga nisbatan differensial yondashuvni joriy etish;
- real vaqt rejimida kredit portfelining monitoringini yo'lga qo'yish;
- kreditlarni kuzatib borish mexanizmlarini mustahkamlash;
- kreditlarni restrukturizatsiya qilish tartiblarini takomillashtirish;
- bank xodimlarining malakasini oshirish;
- me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish.


Umuman olganda, yuqorida bayon etilgan takliflar ushbu maqola doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqot va amaliy tahlillar asosida ishlab chiqilgan. Tijorat banklari rahbarlari hamda soha mutaxassislari tomonidan bu tavsiyalarni amaliyotga joriy etish foiz riskining tijorat banklari faoliyatiga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini kamaytirish va bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. John Stephens. Interest Rate Risk Management in Today's Economy (online). Workiva. Available from: <https://www.workiva.com/blog/interest-rate-risk-management-in-banks> (Published: 29.11.2023).
2. Grant E. Rozenberger & Peter Zimmerman. Interest Rate Risk at US Credit Unions. Working Paper No. 24-03. Federal Reserve Bank of Cleveland. 19 pages. <https://doi.org/10.26509/frbc-wp-202403> (Accessed: 23.09.2024).
3. Самойлов Н. А. Инструменты управления процентными рисками // Теория и практика сервиса: экономика, социальная сфера, технологии. – 2020. – №1 (43). – С. 29–33.
4. Соловьева Н. Е., Голубцова Ю. А. Виды и классификации финансовых рисков. Доступно: <https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/296561/1/103-107.pdf> (Дата обращения: 23.09.2024).
5. Grant E. Rozenberger & Peter Zimmerman. Interest Rate Risk at US Credit Unions. Working Paper No. 24-03. Federal Reserve Bank of Cleveland. 19 pages. <https://doi.org/10.26509/frbc-wp-202403> (Accessed: 23.09.2024).
6. Юлдашева И. З., Хожимухамедова Ш. И., Баходиров О. Н. Вопросы оптимизации и анализа доходов в коммерческих банках Узбекистана // European Scientific Conference, Анапа: НИЦ ЭСП, 2021. – С. 81–84.
7. Саиткулов А. Н. Тижорат банкларида фоиз riskini баҳолаш услуги // Иқтисодиётда инновациялар. – 2023. – Т. 6, №1. – Б. 46–51.
8. Хайдаров З. Ш. Внедрение международных требований при управлении коммерческих банков: региональные аспекты (на примере банковской системы Республики Узбекистан) (онлайн). CYBERLENINKA. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vnedreniya-mezhdunarodnyh-trebovaniy-pri-upravlenii-kommercheskih-bankov-regionalnyy-aspekty-na-primere-bankvskoy-sistemy-respubliki/viewer> (Дата обращения: 23.09.2024).
9. Саиткулов А. Н. Тижорат банкларида фоиз riskini баҳолаш услуги // Иқтисодиётда инновациялар. – 2023. – Т. 6, №1. – Б. 46–51.
10. www.cbu.uz – Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий веб-сайти.
11. Ўзбекистон Республикасининг “Банклар ва банк фаолияти тўғрисида”ги Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисидаги Қонун. 05.11.2019. – ЎРҚ-580-сон.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони: “Капитал бозорини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”. 13.04.2021. – ПФ-6207-сон.



13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори: “Капитал бозорини қўллаб-қувватлашнинг самарали механизмларини жорий этишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”. 17.01.2022. – ПҚ–90-сон.
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори: “Иқтисодиётда давлат иштирокини қисқартиришнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”. 19.04.2024. – ПҚ–162-сон.
15. Мирзиёев Ш. М. “Банк тизимидаги трансформация жараёнлари кўриб чиқилди”. Президент. уз. 20.11.2023. www.president.uz
16. www.cbu.uz – Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий веб-сайти.
17. www.cbu.uz – Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий веб-сайти.
18. Годовой отчет 2023. Тошкент: ЦБ Республики Узбекистан, 2024. – 185 с.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100